

BARKAMOL SHAXS TARBIYASIDA MILLIY TARBIYA IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH METODLARI

Xamidova Nigina Obidovna

Buxoro innovatsiyalar universiteti 2-bosqich magistri

Annotatsiya: Milliy tarbiya metodlari - muayyan jamiyatda ijtimoiy maqsadni amalga oshirish jarayonida pedagogik faoliyatning samaradorligini ta'minlash maqsadida foydalaniladigan tarbiyaviy ta'sirlar tizimidan iborat. Maqolada shu to'grisida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Milliy tarbiya, tajribalar, metod, milliy, hususiyatlar, maqsad, Mustaqil, pedagogika

Аннотация: Национальные методы воспитания – это система воспитательных воздействий, используемых для обеспечения эффективности педагогической деятельности в процессе реализации социальной цели в конкретном обществе. В статье представлена информация об этом.

Ключевые слова: Национальное образование, опыт, метод, национальный, характеристики, цель, независимая, педагогика

Abstract: National methods of education are a system of educational influences used to ensure the effectiveness of pedagogical activities in the process of realizing a social goal in a particular society. The article provides information about this.

Key words: National education, experience, method, national, characteristics, goal, independent, pedagogy

Milliy tarbiya metoddari ajdodlardan avlodlarga hayotiy faoliyat jarayonida vorisiylik tamoyiliga muvofiq uzatiladi. Shuningdek, ular avlodlar tomonidan to'plangan tajribalar asosida boyitilib boriladi. Milliy tarbiyani tashkil etishda samarali bo'lgan metodlar ijtimoiy munosabatlarning yo'nalishi, mazmuni va asosiy g'oyasiga muvofiq tanlab olinadi hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish maqsadida foydalanadi. Milliy tarbiya metodlari - muayyan jamiyatda ijtimoiy maqsadni amalga oshirish jarayonida pedagogik faoliyatning

samaradorligini ta'minlash maqsadida foydalaniladigan tarbiyaviy ta'sirlar tizimidan iborat. Mazkur metodlar shaxsiga yo'naltirilgan bo'lib, bolalarda ijobiy mazmundagi sifatlarni tarbiyalash, ularni har tomonlama, barkamol shaxs bo'lib kamolga yetishlarini ta'minlashta xizmat qiladi. Pedagogika fanida e'tirof etilgan qarashlarga muvofiq tarbiya metodlari o'sib kelayotgan avlod tarbiyasini tashkil etish, ularda ma'naviy -ahloqiy, aqliy hamda irodaviy sifatlarni tarbiyalash maqsadda qo'llaniladi. Milliy hususiyatlarni namoyon etuvchi tarbiyaning muhim omillari bo'lgan tarbiya metodlari esa yosh avlodni muayyan jamiyatda tan olingan ma'naviy-axloqiy me'yorlarga asoslanib tarbiyalashni nazarda tutadi. Milliy tarbiyani tashkil etish chog'ida qo'llanilayotgan tarbiya metodlari o'zlarining yo'nalishi, mazmuni va asosiy g'oyasiga ko'ra rang -barangdir. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodlarni quyidagi tarzda guruhlashni maqsadga muvofiq deb topdik .

Mohiyatiga ko'ra talab quyidagi ikki maqsadni amalga oshirishga yo'naltiriladi. Xususan: 1) bolalarning ijtimoiy - foydali faoliyatini tashkil etishga rag'batlantirish. Ushbu o'rinda talab ota-onalar hamda bolaning hayotiy maqsadlari birligiga erishish ta'minlanadi, jamiyat tomonidan tan olingan ma'naviy-axloqiy me'yorlar in'ikosining bolalar xulq-atvori, xatti-harakatlari, shuningdek, ijtimoiy faoliyati jarayonida aks etishi uchun zamin yaratadi; 2) bolalarni oila manfaati yoki ota-onalarning xohish- istaklarini ro'yobga chiqarish yo'lida muayyan xatti-harakatlarni amalga oshirishga undash. Mazkur vaziyatda ota-onalar tomonidan qo'yilayotgan talablarning aksariyati bolalarning yosh, psixologik va shaxsiy imkoniyatlariga muvofiq kelmaydi. Buning oqibatida talablar garchi ijobiy mazmunga ega bo'lsada, o'z natijalarini bermaydi. Aksincha, bolalarda ularga nisbatan jiddiy norozilikni keltirib chiqaradi. Ba'zan o'smir axborot ko'laminin kengligi, tashqi g'oyaviy ta'sirlar tufayli muayyan vaziyatlarda qat'iy qarorlar qabul qilishga qiynaladi. Tadqiqot doirasida olib borilgan kuzatishlari umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan ma'naviy- ma'rifiy tadbirlar aksariyat holatlarda bolalarning mavjud ehtiyojlariga javob bermayotganligi aniqlandi. Ayrim tadbirlar tarbiyaviy tadbirlar rejasining bajarilishi uchungina tashkil etilayotgan bo'lib, xohish-istaklari, qiziqishlari hamdahayotiy intilishlarini inobatga olish asosida uyushtirilmaydi. Zamonaviy yoshlarda mustaqil rivojlanishiga bo'lgan intilish kuchli. O'z-o'zini tarbiyalash ko'p hollarda ijtimoiy tarbiyadan ilgarilab ketishga imkon yaratadi hamda pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yayotgan sub'ektlarga ma'lum vaziyatda qanday yo'l tutish maqsadga muvofiq ekanligini aniqlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Natijada tarbiya jarayonining mantiqi buziladi. Talablarning bolalar yoshi, psixologik

xususiyatlari hamda shaxsiy imkoniyatlariga mos kelishiga erishish ma'lum pedagogik masalalarning eng maqbul yechimlarini topishga imkon beradi. Faol ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga rag'batlantirish, kelajakka bo'lgan ishonchni qaror toptirish bolalarda o'z oldilariga to'g'ri hayotiy maqsadlarni qo'ya olish ko'nikmalarini shakllantiradi. Mazkur jarayonda talab bolalarning yosh, psixologik va shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olish asosida qo'yilishi pedagogik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Oqilona maqsad bolalarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga imkon berish bilan birga, ularning qiziqishlari darajasini oshiradi. Yoshlar ijobiy fazilatlarini mustahkamlash, ularni boyitish, ular tomonidan o'zi hamda jamiyat uchun foydali xatti-harakatlarning tashkil etilishiga erishish maqsadida qo'shimcha rag'batlantirish, shuningdek, ularni zararli odatlardan holi qilish; maqsadida izza qilish metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metodlar o'ziga xos xususiyatga egaligi bois ularni qo'llash jarayonida otaonalardan alohida ehtiyotkorlik va pedagogik mahorat talab qilinadi. Jamoat fikri (oddiy munosabatlar jarayonida "ko'pchilikning fikri" tarzida qo'llaniladi) o'zbek mahallalari, qishloq, shaharlarida qadimdan ijtimoiy tarbiyaning ta'sirchan metodi bo'lib kelgan. U asosida jamiyat a'zolarining umum tomonidan tan olingan ma'naviy-axloqiy me'yorlarga amal qilish holati tahlil qilib borilgan, shuningdek, ijtimoiy-foydali mehnat (hashar, sahovat va hokazolar) har tomonlama va muntazam rag'batlantirilib borilgan. Ushbu metod oila muhitida ham tarbiyaviy masalalarni to'liq amalga oshirishga yordam beradi. Ya'ni, bolalarning ijtimoiy faolligi hamda shaxsiy kamolotini ta'minlashga yordam beradi. Milliy tarbiya metodlar mohiyatini alohida- alohida sharhlashdan oldin ularni muvaffaqiyatli qo'llashning umumiy qoidalari borasida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimli ravishda qo'yilgan bo'lib, quyidagi yo'nalishlarda tashkil e

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мухаммад Куронов - "Миллий тарбия" Тошкент- "Маънавият"2007й
2. Абдуқаххор Иброхимов- "Ўзбек махалласи" Тошкент "Маънавият"-2007й.
3. Баходир Умаров "Глобаллашув зиддиятлари" Тошкент "Маънавият"- 2006 й.
4. Мухаммад Умаров "Биз англаётган хақиқат" Тошкент "Маънавият"2008 й
5. Камилова, Гульмира Алимовна, and Ойгуль Сирой Кызы Тураева. "ФОРМИРОВАНИЕ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ." *Проблемы науки* 4 (63) (2021): 50-52.

6. Камилова Г. А., Курбанова Г. Р., Джаббарова С. З. Особенности формирования педагогических навыков у воспитателей дошкольно-образовательных учреждений //Academy. – 2020. – №. 5 (56). – С. 25-27.

7. Камилова, Гулмира Алимовна, and Дилором Ботировна Нарзиева. "КОММУНИКАТИВНЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГРАМОТНОСТЬ." *Вестник науки и образования* 8 (128) (2022): 47-50.

8. Камилова Г. А., Нарзиева Д. Б. Повышение экономической грамотности у детей дошкольного возраста с помощью развития коммуникативных компетенций //Вестник науки и образования. – 2022. – №. 8 (128). – С. 44-46.

9. Камилова, Г. А., & Кулиева, Х. Г. (2023). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. *Вестник науки и образования*, (4 (135)), 82-84.

10. Камилова, Г. А., & Тохирова, Ш. Б. К. (2023). ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ВТОРОМУ ЯЗЫКУ В РАЗВИТИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ. *Вестник науки и образования*, (4 (135)), 84-88.

11. Камилова, Г. А., Султонова, М. И., & Бобожонова, М. А. (2023). ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ STEAM В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Вестник науки и образования*, (5-2 (136)), 41-44.

12. Камилова, Г. А., Мухаммедова, М. М., & Жаббарова, О. С. К. (2023). МЕТОДИКА СИСТЕМАТИЧЕСКОГО ВКЛЮЧЕНИЯ МЕНТАЛЬНОЙ АРИФМЕТИКИ ЧЕРЕЗ ИГРЫ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. *Вестник науки и образования*, (5-2 (136)), 38-41.

13. Камилова Г. А. ЭКОЛОГИК ТАРБИЯ ҚОНУНИЯТЛАРИ //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 6-10.

14. Камилова, Гулмира Алимовна. "Мактабгача Таълим Ташкилотларида Экологик Тарбия." *Miasto Przyszłości* 42 (2023): 330-333.

15. Камилова, Г. А. "Развитие системы дошкольного образования." *Вестник науки и образования* 16-2 (119) (2021): 86-88.

16. Alimovna, Kamilova Gulmira. "Laws of Ecological Education." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 2.2 (2022): 241-244.
17. Kamilova G. A. et al. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIARIGA RAHBARLIK VA BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 7. – C. 1149-1153.
18. KAMILOVA, Gulmira. "EKOLOGIK TARBIYADA PAREMIOLOGIYA VA UNING XUSUSIYATLARI." *News of UzMU journal* 1.1.1. 1 (2024): 83-86.
19. Pirnazarov G. F., Mamurova F. I., Mamurova D. I. Calculation of Flat Ram by the Method of Displacement //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 4. – C. 35-39.
20. Olimov S. S., Mamurova D. I. Directions For Improving Teaching Methods //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – C. 9671–9678-9671–9678.
21. Aminov A. S., Mamurova D. I., Shukurov A. R. Additional and didactic game technologies on the topic of local appearance //E-Conference globe. – 2021. – C. 34-37.
22. Mamurova D. I. Application of advanced information technologies of training at drafting lessons //Eastern European Scientific Journal. – 2018. – №. 6.